

PEDAGOGIKA YO'NALISHI TALABALARINI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH JARAYONIDA HUQUQIY SAVODXONLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Xudoyberganov Adham Rahmatullayevich

Termiz davlat pedagogika instituti,

Falsafa, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogik talabalarning kasbiy ishga tayyorgarlik ko'rish jarayonida huquqiy savodxonligini oshirish muammosi ko'rib chiqiladi. Unda bo'lajak o'qituvchilar uchun zamonaviy huquqiy muhitda ta'lim faoliyatini olib borish uchun zarur bo'lgan huquqiy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishning muhimligi asoslanadi. O'qituvchining huquqiy savodxonligining asosiy tarkibiy qismlari tahlil qilinadi va uning kasbiy tayyorgarlik tizimida samarali rivojlanishiga yordam beradigan pedagogik shart-sharoitlar va usullar aniqlanadi. Huquqiy fanlarni o'quv jarayoniga integratsiyalashga, amaliyotga yo'naltirilgan o'qitish shakllaridan foydalanishga va fanlararo yondashuvga alohida e'tibor qaratiladi. Pedagogik talabalarning huquqiy savodxonligini maqsadli ravishda oshirish kasbiy kompetentsiya, huquqiy madaniyat va huquqiy pedagogik faoliyatga tayyorlikni rivojlantirishga yordam beradi degan xulosaga kelish mumkin.

Kalit so'zlar: huquqiy savodxonlik, huquqiy madaniyat, kasbiy tayyorgarlik, pedagogik talabalar, pedagogik ta'lim, huquqiy ta'lim, o'qituvchilarning kasbiy kompetentsiyasi, ta'lim jarayoni.

ПОВЫШЕНИЕ ЮРИДИЧЕСКОЙ ГРАМОТНОСТИ СТУДЕНТОВ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ В ПРОЦЕССЕ ПОДГОТОВКИ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.

Аннотация. В статье рассматривается проблема повышения уровня юридической грамотности студентов педагогических специальностей в процессе их подготовки к профессиональной деятельности. Обосновывается актуальность формирования у будущих педагогов правовых знаний и умений, необходимых для осуществления образовательной деятельности в условиях современного правового поля. Анализируются основные компоненты юридической грамотности педагога, а также выявляются педагогические условия и методы, способствующие её эффективному развитию в системе профессиональной подготовки. Особое внимание уделяется интеграции правовых дисциплин в образовательный процесс, использованию практико-ориентированных форм обучения и междисциплинарного подхода. Сделан вывод о том, что целенаправленное повышение юридической грамотности студентов педагогических направлений способствует формированию профессиональной компетентности, правовой культуры и готовности к правомерной педагогической деятельности.

Ключевые слова: юридическая грамотность, правовая культура, профессиональная подготовка, студенты педагогических специальностей,

педагогическое образование, правовое образование, профессиональная компетентность педагога, образовательный процесс.

IMPROVING LEGAL LITERACY OF PEDAGOGICAL STUDENTS IN THE PROCESS OF PREPARING THEM FOR PROFESSIONAL ACTIVITY

Abstract. *This article examines the problem of improving the legal literacy of pedagogical students during their preparation for professional work. It substantiates the importance of developing the legal knowledge and skills necessary for future teachers to conduct educational activities in the modern legal environment. The key components of a teacher's legal literacy are analyzed, and the pedagogical conditions and methods that facilitate its effective development within the professional training system are identified. Particular attention is paid to the integration of legal disciplines into the educational process, the use of practice-oriented forms of instruction, and an interdisciplinary approach. It is concluded that targeted improvement of the legal literacy of pedagogical students contributes to the development of professional competence, legal culture, and readiness for lawful pedagogical activity.*

Keywords: *legal literacy, legal culture, professional training, pedagogical students, pedagogical education, legal education, professional competence of teachers, educational process.*

KIRISH

Bugungi kunda yoshlarning huquqiy savodxonlikini yuksaltirish, huquqiy demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida ularning faolligini oshirish, yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlovchi, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarash va chuqur bilimga ega bo'lgan vatanparvar yoshlarni tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani bejis emas. Chunki yurtimizni yuksak rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shish maqsadida amalga oshirayotgan keng ko'lamli islohotlar samarasi ko'p jihatdan bilimli, huquqiy tafakkuri yuksak, intiluvchan yoshlarga bog'liq.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev "... birinchi navbatda aholi, ayniqsa yoshlar o'rtasida huquqiy tarbiyani keng yo'lga qo'yishimiz lozim. Oddiy qilib aytganda, farzandlarimizga bolalik paytidan "yaxshi" va "yomon", "mumkin" va "mumkin emas" degan tushunchalar o'rtasidagi farqni o'rgatishimiz, o'zimiz esa ularga doim shaxsiy namuna bo'lishimiz kerak" deb ta'kidlab o'tgan[2].

Izchil, uzluksiz, zamonaviy talablarga javob beradigan huquqiy ta'lim tizimini yaratish, ta'limning barcha bosqichlarini qamrab oladigan o'quv komplekslarini tashkil etish pedagoglarini tayyorlashning muhim vositasidir.

Ilmiy asoslangan o'quv dasturlarini ishlab chiqish va huquqiy ta'limning ixtisoslashuvini izchil amalga oshirish bojxona kadrlarini tayyorlash tizimini isloh qilishning zarur shartidir.

O'quv jarayonida huquqqa oid fanlarni o'qitishdan asosiy maqsad talabalarda huquqiy bilimlarni egallash, huquqiy ishonch, e'tiqodni hosil qilish, ijtimoiy-huquqiy faollik ko'nikmalarini hosil qilish orqali huquqiy savodxonlikni takomillashtirishdir.

METODOLOGIYA

Ushbu umumiy maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalarni bajarish zarur bo'ladi:

- 1) davlat va huquq masalalariga oid bilimlar tizimini o'rgatish orqali talabalarning hayot faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan ma'lumotlar bilan qurollantirish;
- 2) huquqqa, qonunchilikka, huquqni muhofaza qilish organlariga hurmat hissini tarbiyalash;
- 3) huquqiy normalarga mos hatti-harakatni amalga oshirish ko'nikmasini shakllantirish;
- 4) faol fuqarolik nuqtai-nazarini shakllantirish, huquqbuzarlikning har qanday ko'rinishlariga qarshi murosasizlik ruhida tarbiyalash;
- 5) har bir muammoni qonuniy yo'l bilan hal etish ko'nikmasini hosil qilish;
- 6) huquqiy faollikni shakllantirishdan iborat.

Huquqiy savodxonlikni shakllantirishning vosita va usullarini takomillashtirish maqsadi fuqarolar bilan olib boriladigan huquqiy ishlar saviyasini oshirish hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning va o'quv yurtlarining kadrlar bilan yetarli ta'minlanishiga erishishdir[3].

Huquqiy ta'lim va tarbiya o'rtasida o'zaro aloqadorlik mavjud bo'lib, huquqiy savodxonlikni shakllantirishning garovi hisoblanadi.

Pedagoglarning huquqiy savodxonlikni takomillashtirish jarayonida quyidagi pedagogik vazifalar hal etiladi:

- pedagoglarga huquqiy me'yorlar, qonunlar, ijtimoiy-huquqiy munosabatlarning mohiyati hamda ularning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati to'g'risida bilimlar berish;

- pedagoglarda huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, mustaqil tayyorgarlik asosida o'zo'zini huquqiy tarbiyalashga yo'naltirish, huquqiy ongni qaror toptirishga erishish;

- pedagoglarda huquqiy faoliyatlarini tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarini hosil qilish;

- pedagoglarda qonun asosida yashash va faoliyat ko'rsatish, qonun orqali o'z huquq va erkinliklarini himoya qilish, o'z majburiyatlarini og'ishmay bajarish, huquqiy muammolarni hal etishda qonunga xilof kuchlardan foydalanmaslik, huquqiy faollik ko'rsatish haqidagi huquqiy tafakkurni hosil qilish.

Ushbu vazifalarni hal etish jarayonida quyidagi jihatlarni hisobga olish muhim ahamiyatga egadir:

- birinchidan, pedagoglari huquqiy savodxonliki voqelikning barcha tomonlari bilan birga huquqiy munosabatlarni ham aks ettiradi;
- ikkinchidan, pedagoglari huquqiy savodxonlikining rivojlanish darajasi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy darajasi bilan chambarchas bog'liqda namoyon bo'ladi;
- uchinchidan, pedagoglari, boshqa ijtimoiy-demografik guruhlar va bir butun jamiyatga xos bo'lgan umumiylik hamda ularning o'ziga xosligini hisobga olish zarur. "Yoshlar huquqiy savodxonlikining tarkibiy unsurlari huquqiy bilish, tushunish hamda unga rioya etishga odatlanishdan, huquq talablarini hurmat qilish, huquq ko'rsatmalarining to'g'riligiga va adolatliligiga ishonch hamda yuridik sohada faol hayotiy pozitsiyaga ega bo'lishdan iboratdir"[4].

Biz kasbiy faoliyatga tayyorlashda huquqiy savodxonlikni takomillashtirish jarayonining tarkibiy qismlari o'rtasidagi muhim bog'lanishlarni yaxlit bir butun his etish va topishga majbur qiladi, shaxsning fikrlashi va tafakkurini faollashtiradi. Huquqiy savodxonlikni takomillashtirish jarayoni va uning tuzilmasini (tarkibiy

qismlarini) didaktik (metodik) modellashtirishni quyidagi bir qator tamoyillar asosida amalga oshirdik:

1) pedagoglarining huquqiy savodxonlikini takomillashtirishning mazmuni, tashkiliy shakllari, metodlari va vositalari hamda talabalarning batartibligi;

2) huquqiy savodxonlikini takomillashtirishning o'zaro aloqador qismlardan tashkil topganligi;

3) huquqiy savodxonlikini takomillashtirish jarayoni mazmunini tashkil qiluvchi tarkibiy qismlarning bir xilda murakkabligi, qisqa va aniqligi;

4) maqsad va vazifalar, asosiy tushunchalar va sabab-oqibat bog'lanishlarini saralash va tanlash bilan aniqlanadigan yangi tuzilmalarning vujudga kelishi;

NATIJA VA MUHOKAMA

Biz yuqorida ta'kidlangan tamoyillarga asoslangan holda huquqiy madaniyatini takomillashtirish modelining quyidagi asosiy yondashuvlarni ajratib ko'rsatdik:

- 1) qadriyatli;
- 2) tizimli;
- 3) shaxsga yo'naltirilgan.

Qadriyatli (aksiologik) yondashuv – madaniyat inson hayotining mazmuni sifatida tushuniladi. Qadriyatli yondashuv – talabalarda o'z hayotining mazmunini anglashi uchun zaruriy shart-sharoit yaratishga, uning tabiat, sotsium, madaniyat bilan muloqotida yuzaga keladigan shaxsiy fikrlarini tarbiyalashga yo'naltirilishi lozim [5].

Pedagoglarining huquqiy savodxonlikini takomillashtirishda tamoyillar, bilimlar tizimliliigi, huquqiy-me'yoriy shartlilik, shaxsiy-yo'naltirilganlik, funksionallik, kreativlik, jamoaviy hamkorlik, hissiy barqarorlik, integrativlik, kommunikativlik, ta'lim fanlarining o'quv-uslubiy imkoniyatlari, modellashtirish vaziyatni to'g'ri baholash, ijodiy yo'naltirilganlik, refleksiyadan to'g'ri foydalanish kerak [6].

Shaxsiy hamda kasbiy rivojlanishning mohiyati – borliqning soddalashgan, kichraytirilgan aksini yaratish, ya'ni undagi lavhalarni yuzaga keltirish – yaratish - shakllantirish - hosil qilishdan iborat. Borliqdagi qiyofalarni mos ravishda qo'llay olish uchun biz o'zimizda ushbu lavhalardan hayotning to'laqonli aksini yarata olishimiz lozim. Kasbiy shakllanish jarayonining maqsadi - uni qiyofa – modellardan qayta tiklay olishdan iborat [7].

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv kasbiy ta'lim jihatlarini o'zgartiradi. Unda birinchi o'ringa shaxsning ichki kuchlarini, uning aqli va ma'naviy imkoniyatlarini, uning murakkab ijtimoiy va kasbiy vaziyatlarda erkin o'z yo'lini topa olish qobiliyatini, innovatsion, ijodiy jarayonlarni amalga oshirish qobiliyatini ochib berish yotadi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv o'quv jarayonida va kasbida hayot faoliyati usulini, o'zining kompetentligini va o'zining shaxsiy mohiyatini amalga oshiruvchi faol sub'ekt sifatida talabalarning qaror topishidan iboratdir.

Shaxsning yakka tartibdaliligi o'ziga xosligining asosi sifatida dunyoga va o'z-o'ziga nisbatan ko'rsatmalarda namoyon bo'ladigan uning qadriyatlari va ma'nolari ishtirok etadi. Mazkur jihatdan tushuniladigan yakka tartibda yondashuv pedagogik jarayonning yakka tartibdalik sifatida shaxsning rivojlanishiga: o'zining "men"ini, o'z maqsadlari, qadriyatlari ma'nolarini anglash va namoyon qilish uchun sharoit yaratish, o'z yakka tartibdaligiga mos keluvchi o'quv va kasbiy faoliyat mazmuni va uslublarini tanlashni nazarda tutadi. Yakka tartibda yondashuv o'zining mazkur qiymatida shaxsiy yondashuvga yaqindir[6].

Pedagoglarni yo'naltirib o'qitish jarayonida yakka tartibdagi yondashuvni amalga oshirishning afzalligi va shu bilan birga qiyinchiligi bunday yo'naltirib o'qitish tizimi uning ikkala tashkil etuvchisiga yo'naltiriladi – pedagogik jarayon faqat talabalarning yakka tartibda xususiyatlarini xisobga olibgina qurilmay, balki ularning yakka tartibdaligini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar ham yaratiladi.

Biz shaxsiy va yakka tartibda yondashuvlar maxsus kasbiy bilimlar va ko'nikmalarning shakllanishini ta'minlashi, ilmiy izlanishga o'rgatishi, o'quv amallarini o'zlashtirish natijasi sifatidagi bilim, malakalar va ko'nikmalarning takomillashtirilishiga imkon berishi, o'zini anglashning alohida sifatlarini shakllantirilishi, pedagogining rivojlanishi uchun zarur kasbiy sifatlarni va kasbiy

faoliyatning yakka tartibdaligini shakllantirishi, shaxsdagi ma'lum bir ishbilarmonlik sifatlarni o'quv faoliyati doirasidagina rivojlantirishi, talabalarni mazkur faoliyat sub'ekti sifatida qaror topishga va rivojlanishiga imkon berishi mumkin deb o'ylaymiz.

Pedagoglarining huquqiy savodxonlikini takomillashtirishda talabalarning o'quv bilish faoliyatini samarali amalga oshirishda pedagogik shart-sharoitlar xam muhim ahamiyatga ega, mavzuga doir adabiyotlarni o'rganish va huquqiy savodxonlikni takomillashtirishni tashkil qilish jarayonini kuzatish natijasida quyidagi pedagogik shart- sharoitlarning mavjudligi talabalarning huquqiy savodxonlikini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega, degan xulosaga keldik:

1) fanlar mazmuni kasbga yo'naltirilganligi, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy bilimlar, boshqaruv ijodiy tajribalarning o'zlashtirilganligi;

2) kasbiy-huquqiy savodxonlikning shakllanishini ta'minlovchi ta'lim shakl va usullarining amalga oshirilishi, davlatning iqtisodiy xavfsizligi bo'yicha targ'ibot tashviqot ishlarini tashkil etish va o'tkazish, xujjatlarni rasmiylashtirish, faxriylar bilan uchrashuvlar, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarning o'zaro bog'liqligini ta'minlash va h.k.;

Tadqiqot natijalariga ko'ra biz pedagoglarining huquqiy savodxonlikini takomillashtirish bosqichlarini quyidagi belgiladik:

1-bosqich. Talabalarda huquqiy ong, huquqiy tarbiyani singdirish orqali huquqiy savodxonlik sifatlarini shakllantirish bosqichi.

2-bosqich. O'z-o'zini rivojlantirish, xuquqiy faoliyatda o'zini namoyon qila olishni shakllantirish orqali huquqiy savodxonlikni rivojlantirish bosqichi.

3-bosqich. Huquqiy faoliyatga tayyorlikni, ijtimoiy-huquqiy faollikni, huquqiy asoslangan hatti-harakatlarni takomillashtirish bosqichi.

Pedagoglarining huquqiy savodxonliki takomillashtirish jarayonida ta'lim shakli, metod va vositalari takomillashtirildi.

Ta'lim shakli sifatida auditoriyada jamoaviy, guruhli, yakka tartibda ishlash, tushuntirish, yo'l-yo'riq ko'rsatish, munozara, rivojlantiruvchi ta'lim shakllari tashlab olindi.

O'qitish metodlari ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchii faoliyatining yo'nalishini, o'qitish jarayonining qanday tashkil etilishi va olib borilishi hamda o'qituvchining ish harakatlarini belgilaydi. Bu metodlar o'qituvchi tomonidan talabalar bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishlari uchun qo'llaniladigan usullar yig'indisini o'z ichiga oladi.

Ta'lim metodlari didaktikaning eng asosiy kategoriyasidan hisoblanadi. Agar ta'lim mazmuni nimaga o'qitish kerak degan savolga javob bersa, metodi esa qanday o'qitish kerak degan savolga javob beradi[7].

Pedagoglarining huquqiy savodxonlikini baholash uchun bir-birini to'ldiruvchi quyidagi baholash mezonlarini talab oldik:

Intellektual mezon - huquqiy bilimlar, huquqiy qarashlar, huquqiy ongning shakllanganligi bilan ifodalanadi.

Motivatsion-qadriyatli - huquqiy motiv, huquqiy ko'rsatma, huquqiy xulq-atvorni shakllanganligini ifoda etadi.

Amaliy faoliyatli - huquqiy ko'nikmalar, malakalar, tajribalarni o'z ichiga oladi. Modelning tarkibiy qismlari tahlili quyidagilardan dalolat beradi: Maqsad bo'lajak o'qituvchiining huquqiy savodxonlikini rivojlantirish, ularning o'z faoliyatlarida normativ-huquqiy hujjatlardan foydalana olish qobiliyatini shakllantirishdan iboratdir. Ularda quyidagi muayyan bilimlar, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari zarur:

Bizningcha har bir talaba "mumkin", "zarur", "ta'qiqlanadi" tushunchalarining ma'nosini to'la anglagan holda quyidagi asosiy yo'nalishlarni belgilab olishi zarur bo'ladi:

- 1) huquqiy munosabatlar boshqa qatnashchilarning huquqlariga zid bo'lmagan holda o'z sub'ektiv huquqini himoya qila bilish;
- 2) davlat, jamiyat, mehnat jamoasi, oila a'zolari oldidagi yuridik majburiyatlarni to'la anglashi;
- 3) yuridik javobgarlikning chegaralarini va turlarini bilish.

XULOSA

Ziddiyatli, munozarali xususiyatga ega bo'lgan huquqiy masalalarni bo'lajak o'qituvchilar auditoriyada muhokama qilishlari bilan birga, ularni mustaqil

tayyorgarlik ko'rish jarayonida amaliy topshiriqlarni bajarish va mustaqil, asoslangan qarorlar qabul qila bilishi zarur.

Bo'lajak o'qituvchiining huquqiy savodxonlikini takomillashtirish modeliga muvofiq mazkur jarayonini boshqarish va uning uzluksiz monitoringini olib borish lozim. Bu esa, bo'lajak bojxona xizmati xodimining huquqiy savodxonlikini takomillashtirish jarayonining har bir bosqichini nazorat qilish imkonini beradi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: «O'zbekiston», 2019 [Elektron manba] // URL: <https://www.lex.uz/acts/20596>.
2. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston, 2017. – 48 b. 21.
3. Aslonov I.N. Ta'lim tizimi faoliyati samaradorligini oshirishda kadrlarning shaxsiy psixologik tayyorgarligi omili (muomala jarayoni misolida): psixol. fan. nom. dis. – T.: TDPU, 2009. – 164 b
4. Nasriddinova O.T. Huquqiy madaniyat fuqarolik jamiyatini shakllantirishda muhim (yoshlar misolida): yurid.fan.nomz. ... diss. – T.: 2009. – 36 b.
5. Sagdullaeva D.Sh. Jamiyat demokratlashuvi sharoitida fuqarolar huquqiy tadaniyatini takomillashtirishning ijtimoiy-falsafiy asoslari: Diss. avtoref. ... fal.fan.nom. – T., 2010. – 45 b.
6. Usmanbaeva M.H. Umumiy o'rta ta'lim maktabi talabalarining huquqiy savodxonlikini shakllantirish (VIII-IX sinflar misolida). Ped. fan. nom. ... dis. avtoref. – T., 2000. – 149 b.
7. Islomov M.Z. Davlat va huquqning umumnazariy muammolari: huquqni tushunish, huquqiy ong va huquq ijodkorligi T: Fan va texnologiyalar markazining bosmaxonasi, 2005. – B. 29, 150.